IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

OHANGDAN BOSHLANGAN TARBIYA

Nusratova Nigora Nurmat qizi
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab internati musiqa fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23212045

Annotatsiya: Mazkur maqolada ohangning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni, uning o'quvchi shaxsining hissiy holati, nutqiy faolligi va xulq-atvoriga ta'siri yoritilgan. Ohang orqali beriladigan munosabat, talab, rag'bat va tanbehning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinib, o'qituvchi nutqining mazmuni bilan bir qatorda uning qanday ohangda ifodalanishi ham pedagogik jarayon samaradorligiga ta'sir qilishi asoslangan.
Kalit so'zlar: ohang, tarbiya, pedagogik muloqot, o'qituvchi nutqi, o'quvchi shaxsi, hissiy ta'sir, nutq madaniyati, muloqot, pedagogik munosabat, rag'batlantirish, tarbiyaviy ta'sir.

Аннотация: В статье рассматривается роль интонации в образовательном и воспитательном процессе, а также её влияние на эмоциональное состояние, речевую активность и поведение учащегося. Анализируются воспитательные возможности отношения, требования, поощрения и замечания, выражаемых посредством интонации. Обосновывается, что эффективность педагогического процесса определяется не только содержанием речи учителя, но и тем, с какой интонацией она выражается.
Ключевые слова: интонация, воспитание, педагогическое общение, речь учителя, личность учащегося, эмоциональное воздействие, культура речи, коммуникация, педагогическое отношение, поощрение, воспитательное воздействие.

Abstract: This article examines the role of intonation in the educational and воспитательный process, as well as its influence on students' emotional state, speech activity, and behavior. It analyzes the educational potential of attitudes, demands, encouragement, and reprimands expressed through intonation. The article substantiates that the effectiveness of the pedagogical process depends not only on the content of the teacher's speech but also on the manner and intonation with which it is expressed.
Keywords: intonation, education, pedagogical communication, teacher's speech, student personality, emotional impact, speech culture, communication, pedagogical attitude, encouragement, educational influence.

Kirish. Bola tarbiyasida musiqa va ohangning o'rni ko'pincha uning mazmuni, qo'shiq matni yoki musiqiy asarning g'oyasi bilan izohlanadi. Biroq musiqiy tarbiya jarayonida bolaning asarni qanday qabul qilishi faqat matn mazmuni bilan belgilanmaydi. Ohang, ritm, temp, dinamika, tembr va pauza kabi musiqiy ifoda vositalari ham bolaning hissiy holati, diqqati va estetik munosabatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan musiqa ohangi bolaning dastlabki estetik va emotsional tarbiya vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Musiqaning inson hissiyotlariga

ta’siri masalasi musiqiy psixologiya va pedagogika tarixida bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, B.M.Teplov musiqiy qobiliyat va musiqiy idrok masalalarini tadqiq etar ekan, musiqani idrok etish jarayonida hissiy munosabatning muhim o‘rin tutishini asoslab, bolaning musiqiy asarni qabul qilishi faqat tovushlarni eshitish bilan cheklanmasdan, ularning xarakteri va emotsional mazmunini his qilish jarayoni sifatida qaralishi mumkin[1]. Bizningcha, aynan shu jihat “ohangdan boshlangan tarbiya” tushunchasining psixologik asosini ko’rsatib, bola musiqiy tovushni avvalo hissiy jihatdan qabul qiladi, keyinchalik esa uning mazmunini anglay boshlaydi. Shu tariqa musiqaning inson tarbiyasidagi ahamiyati namoyon bo’ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bola hayotining ilk davrlaridanoq musiqiy tovushlarning mazmunini to‘liq anglamagan holda ham ularning xarakterini his eta boshlaydi. Mayin va sokin kuy bolada xotirjamlik, quvnoq va jo‘shqin ritm esa, harakatchanlik hamda ijobiy emotsional holat uyg‘otishi mumkin. Aksincha, keskin dinamika, tez temp yoki kuchli tovushlar bolaning hissiy reaksiyasini o‘zgartiradi. Bolalarning musiqa orqali hissiy va estetik tajribalarni shakllantira olishi eksperimental tadqiqotlarda ham kuzatilgan: maktab yoshidagi bolalar notanish musiqiy parchalar bo‘yicha ham emotsional va estetik baholashlar bera olishlari aniqlangan. Musiqaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tushuntirishda B.V.Asafyevning intonatsiya haqidagi qarashlari ham alohida ahamiyatga ega. B.Asafyev musiqa mohiyatini uning intonatsion tabiati bilan bog‘lagan[2]. Shu nuqtayi nazardan, ohangni faqat tovushlarning ketma-ketligi sifatida emas, balki muayyan hissiy va mazmuniy munosabatni ifodalovchi vosita sifatida qarash mumkin. Zamonaviy musiqa pedagogikasida ham Asafyevning qarashlari musiqa obrazini nutq, imo-ishora, takroriy tinglash va ijodiy faoliyat orqali anglash metodlari bilan bog‘lanadi.

Bizningcha, bu yondashuv “ohangdan boshlangan tarbiya” g‘oyasini yanada aniqlashtiradi. Ya’ni, tarbiyaviy ta’sir faqat qo‘shiqning so‘zlari yoki berayotgan g‘oyasi orqali emas, balki uning qanday intonatsiyada, qanday ritm va tempda, qanday dinamik xarakterda yangrashida ham namoyon bo‘ladi. Musiqiy ohangning tarbiyaviy imkoniyati shundaki, u bolaning kayfiyati va hissiy munosabatini so‘zsiz ham shakllantira oladi. Masalan, bir xil musiqiy mavzu turli temp, ritm yoki dinamikada ijro etilganda tinglovchida turlicha taassurot hosil qiladi. Sokin ijro muloyimlikni, tezkor ritm quvonch va harakatchanlikni, sekin temp esa sokinlik yoki mulohazakorlikni ifodalashi mumkin. Shu sababli musiqa mashg‘ulotlarida bolaga nafaqat “nimani eshitish”, balki “u qanday yangrayapti va qanday hissiyot uyg‘otmoqda?” degan savollarni anglatish muhimdir.

Bu masalaga D.B.Kabalevskiyning musiqiy tarbiya konsepsiyasi ham yaqin turadi. D.Kabalevskiy musiqa ta’limini faqat musiqiy bilim va texnik ko‘nikmalarni berish jarayoni sifatida emas, balki bolaning hissiy, estetik va ma’naviy dunyosini rivojlantirish vositasi sifatida talqin qilgan[3]. Uning yondashuvida musiqani idrok etish, musiqiy obrazni anglash va unga emotsional munosabat bildirish muhim o‘rin egallaydi. Tadqiqotlarda D.Kabalevskiy musiqiy idrokni musiqa ijodi, ijrochilik va uni o‘rganishning asosiy negizlaridan biri sifatida ko‘rgani

[1] Теплов Б. М. Психология музыкальных способностей. – М.; Л.: Изд-во Академии педагогических наук РСФСР, 1947. – 335 с.
[2] Асафьев Б. В. Музыкальная форма как процесс: кн. 1–2. – 2-е изд. – Л.: Музыка. Ленингр. отд-ние, 1971. – 376 с.
[3] Кабалевский Д. Б. Воспитание ума и сердца: кн. для учителя. – М.: Просвещение, 1981. – 192 с.

qayd etiladi. Shundan kelib chiqib, bizningcha, bolaga musiqani shunchaki eshittirishning o‘zi yetarli emas. Pedagog bolaning musiqiy asar xarakterini anglashiga, undagi o‘zgarishlarni sezishiga va o‘z hissiy munosabatini ifodalashiga sharoit yaratishi lozim. Demak, musiqiy tarbiyada “tinglash”dan “anglash”ga, “anglash”dan esa “ifodalash”ga o‘tuvchi pedagogik jarayon tashkil etilishi kerak. Musiqa orqali tarbiyalashda pedagogning ijro uslubi ham alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchi qo‘shiq kuylaganda yoki musiqiy asarni tinglashga tayyorlaganda ovoz kuchi, temp, ritm va ifodaviylikni vaziyatga mos ravishda boshqara olishi kerak. Pedagogning musiqiy namunasi bolada tovushni tinglash, farqlash va unga emotsional munosabat bildirish qobiliyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonni bolaning kattalar faoliyatini kuzatish va faoliyatga qo‘shilish orqali rivojlanishini tushuntiruvchi madaniy-tarixiy yondashuv bilan ham bog‘lash mumkin.

Muxokama va natija. Musiqiy ta’limda bolaning faol ishtirokini ta’minlash masalasida Karl Orff va Emil Dalkroz qarashlari ham muhim metodik ahamiyatga ega. Orff yondashuvida musiqa va harakatning o‘zaro bog‘liqligi, bolaning musiqa bilan “amalda” shug‘ullanishi muhim o‘rin tutadi[4]. Dalkroz pedagogikasida esa ritmni tana harakati orqali his qilish va ifodalashga alohida e’tibor beriladi. Zamonaviy manbalarda Orff, Kodaly va Dalkroz yondashuvlari musiqa ta’limida harakat, faol ishtirok va bolaga yo‘naltirilgan metodlar bilan bog‘lanishi qayd etiladi. Bizningcha, ushbu qarashlarning umumiy jihati shundaki, bola musiqani faqat quloq orqali emas, balki eshitish – his qilish – harakat qilish – ifodalash ketma-ketligi orqali chuqurroq o‘zlashtiradi. Shu sababli musiqiy tarbiya jarayonida tinglashni harakat va ijodiy faoliyat bilan birlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Musiqiy mashg‘ulotlarda turli xarakterdagi kuylarni taqqoslash samarali metodik usul hisoblanadi. Masalan, quvnoq va sokin, tez va sekin, baland va past dinamikada ijro etilgan musiqiy parchalarni tinglash orqali bolalar ularning farqini aniqlashga o‘rganadilar. “Bu kuy qanday xarakterga ega?”, “Musiqa tezmi yoki sekinmi?”, “Qanday kayfiyat uyg‘otdi?”, “Qaysi tovushlar kuchliroq eshitildi?” kabi savollar bolaning faol tinglashini ta’minlaydi. Bunda Zoltan Kodalyning faol musiqiy eshitish va musiqiy savodxonlikka yo‘naltirilgan yondashuvi ham metodik jihatdan ahamiyatlidir. Z.Kodaly tizimida bolaning musiqani eshitish, kuylash va musiqiy belgilarni anglash orqali faol ishtirok etishiga e’tibor qaratiladi[5]. Zamonaviy tizimli sharhlarda Kodaly, Orff va Suzuki yondashuvlari musiqani tushunish, ifodalash va ijodkorlikni rivojlantirish bilan bog‘liq natijalar orqali tahlil qilingan.

Musiqiy ohangning tarbiyaviy ta’siri bolaning harakatlarida ham namoyon bo‘ladi. Musiqa ritmiga mos yurish, chapak chalish, raqs harakatlarini bajarish, tovush kuchiga qarab harakatni o‘zgartirish kabi mashqlar eshitish va harakatning uyg‘unligini rivojlantiradi. Ayniqsa, temp va ritmning o‘zgarishini harakat orqali ifodalash bolaga musiqiy xarakterlarni amaliy ravishda his qilish imkonini beradi. Natijada musiqa faqat tinglanadigan san’at turi emas, balki bolaning harakat, hissiyot va tafakkurini birlashtiruvchi pedagogik vositaga aylanadi. Bolaning musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirishda savol-javob, tinglash, taqqoslash, takrorlash va ijodiy topshiriqlar samarali hisoblanadi. Masalan, pedagog bir musiqiy parchani ikki xil tempda ijro etib, bolalardan qaysi ijro quvnoqroq yoki sokinroq eshitilayotganini aniqlashni so‘rashi mumkin.

---

[4] Далькроз Э. Ж. Ритм, музыка и воспитание. – М.: Классика-XXI, 2006. – 248 с.
Орф К. Музыка для детей: методические основы музыкального воспитания. – М.: Музыка, 1976. – 96 с.
[5] Кодай З. Избранные статьи и выступления. – М.: Советский композитор, 1982. – 272 с.

Boshqa bir topshiriqda esa bolalar berilgan musiqaning xarakteriga mos harakat yoki obraz yaratadilar. Bunday mashqlar musiqiy idrokni faollashtirish bilan birga, bolaning mustaqil estetik fikrlashini ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Bu fikrni L.S.Vygotskiyning san’at va rivojlanish haqidagi qarashlari bilan ham bog‘lash mumkin. Biroq bu yerda L.Vygotskiyni “musiqa metodikasining bevosita muallifi” sifatida emas, balki san’atning inson ruhiy jarayonlari va hissiy tajribalar bilan aloqasini tushuntiruvchi nazariy asos sifatida qo‘llash to‘g‘riroq bo‘ladi[6]. L.Vygotskiyning san’at psixologiyasiga oid qarashlari musiqaning insonning hissiy tajribasi bilan bog‘liq murakkab psixologik jarayon sifatida talqin qilinishiga imkon beradi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham uning nazariyasi musiqiy faoliyatning emotsional tajribani anglashdagi imkoniyatlarini izohlash uchun qo‘llanmoqda. Musiqiy tarbiyada ijodiy faoliyat alohida o‘rin tutadi. Bolaga ma’lum bir hissiy holatni musiqa orqali ifodalash, ritmik naqsh yaratish, oddiy kuyga mos harakat topish yoki berilgan musiqiy obrazni harakat bilan tasvirlash kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bunday faoliyat jarayonida bola tayyor musiqiy namunani shunchaki takrorlamaydi, balki uning xarakterini anglash va o‘z munosabati orqali ifodalashga harakat qiladi. Bu esa musiqiy tafakkur va ijodiy tashabbusning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Musiqa orqali tarbiyalashda milliy musiqiy merosdan foydalanish ham muhimdir. Xalq qo‘shiqlari, bolalar qo‘shiqlari, milliy kuy va raqs ohanglari orqali bola o‘z xalqining musiqiy an’analari, estetik qarashlari va madaniy qadriyatlari bilan tanishadi. Bunda musiqiy asarning faqat mazmuni emas, balki uning ohang tuzilishi, ritmik xususiyati, ijro xarakteri va milliy musiqiy bo‘yoqlari ham tarbiyaviy mazmun kasb etadi. Shuningdek, musiqiy faoliyat bolaning boshqa insonlar bilan munosabatini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Birgalikda qo‘shiq kuylash, ansamblda ijro etish, musiqaga mos jamoaviy harakatlarni bajarish jarayonida bola navbat kutish, boshqalarni tinglash, umumiy ritmga moslashish va hamkorlik qilishni o‘rganadi. Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida ham bolaning emotsiyalarni anglash va boshqarish, ijobiy munosabatlar o‘rnatish, hamkorlik va ijtimoiy xulq-atvorni rivojlantirish ta’limning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Musiqa bolaning o‘qishga bo‘lgan munosabati va ta’lim jarayonidagi faolligiga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mashg‘ulotning musiqiy jihatdan boy, hissiy va ijodiy tashkil etilishi bolaning diqqatini jalb qilishga, faol ishtirokini kuchaytirishga va o‘quv materialiga qiziqishini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi. Biroq bu ta’sirni avtomatik tarzda “musiqa har doim o‘zlashtirishni oshiradi” deb talqin qilish to‘g‘ri emas. Bizningcha, musiqaning pedagogik samarasi uning qaysi yoshdagi bola uchun, qanday vazifa asosida, qanday asar va qanday metod bilan qo‘llanayotganiga bog‘liq. Shu bois musiqa pedagog tomonidan maqsadsiz fon sifatida emas, balki aniq tarbiyaviy va ta’limiy vazifaga mos ravishda tanlanishi lozim. Musiqa ta’limi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda ham turli metodlarni o‘quvchining ehtiyoji va ta’lim maqsadiga moslash zarurligi ta’kidlanadi. “Ohangdan boshlangan tarbiya” tushunchasi musiqiy tovush va ohangni bolaning estetik, emotsional, axloqiy hamda ijtimoiy rivojlanishi bilan bog‘liq holda talqin etishni nazarda tutadi. Teplovning musiqiy idrok va qobiliyat haqidagi qarashlari, B.Asafyevning intonatsiya konsepsiyasi, D.Kabalevskiyning musiqiy-estetik tarbiya g‘oyalari, K.Orff va E.Dalkrozning musiqa-harakat uyg‘unligiga asoslangan yondashuvlari, Kodalyning

[6] Выготский Л. С. Психология искусства. – М.: Искусство, 1986. – 573 с.

faol musiqiy eshitish va kuylashga yo‘naltirilgan qarashlari mazkur tushunchaning turli ilmiy-metodik jihatlarini ochib beradi. Bizningcha, ularni umumlashtiruvchi asosiy jihat – bolaning musiqani passiv eshituvchi emas, balki uni his qiluvchi, anglovchi, harakat va ijod orqali ifodalovchi faol subyekt sifatida qaralishidir.

Xulosa. Demak, tarbiya ba’zan so‘zdan oldin, ohangdan boshlanadi. Bola avval musiqaning kayfiyatini his qiladi, keyin uning xarakterini anglaydi va asta-sekin ushbu hissiy tajribani estetik munosabatga aylantiradi. Shu sababli musiqiy ta’lim jarayonida ohang, ritm, temp, dinamika va tembr kabi vositalardan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish bolaning nafaqat musiqiy qobiliyatlarini, balki uning hissiy, estetik va ijtimoiy sifatlarini rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Теплов Б. М. Психология музыкальных способностей. – М.; Л.: Изд-во Академии педагогических наук РСФСР, 1947. – 335 с.
2. Асафьев Б. В. Музыкальная форма как процесс: кн. 1–2. – 2-е изд. – Л.: Музыка. Ленингр. отд-ние, 1971. – 376 с.
3. Кабалевский Д. Б. Воспитание ума и сердца: кн. для учителя. – М.: Просвещение, 1981. – 192 с.
4. Далькроз Э. Ж. Ритм, музыка и воспитание. – М.: Классика-XXI, 2006. – 248 с.
5. Орф К. Музыка для детей: методические основы музыкального воспитания. – М.: Музыка, 1976. – 96 с.
6. Кодай З. Избранные статьи и выступления. – М.: Советский композитор, 1982. – 272 с.
7. Выготский Л. С. Психология искусства. – М.: Искусство, 1986. – 573 с.